



## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC

SOLUTIONS

**XORIJIY TILLARNI O`RGANISHDA MAQOLLARNING  
O`RNI VA AHAMIYATI  
(INGLIZ VA O`ZBEK TILLARI MISOLIDA).****Aripova Iroda Ikrom qizi***Termiz iqtisodiyot va servis universiteti magistranti**Email: [irodaikramovna@gmail.com](mailto:irodaikramovna@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda xorijiy tillarni o`qitishda maqollarning o`rni va o`rganilish ahamiyati haqida so`z boradi. Ingliz maqollarini o`zbek tiliga sinxron tarjima qilish va o`zbek maqollaridan muqobil variantlarini topish orqali o`rganish yo`llari haqida ma`lumot beriladi

**Kalit so`zlar:** maqol, parema, paremiologiya, sav, masal, sinxron tarjima, adekvatik munosabat.

**Annotation:** This thesis discusses the role of proverbs in teaching foreign languages and the importance of learning. Information is provided about ways to learn English proverbs by synchronously translating them into Uzbek and finding alternatives to Uzbek Proverbs.

**Key words:** proverb, parema, paremiology, sav, parable, synchronic translation, adequate attitude.

Keyingi yillarda yurtimizda xorijiy tillarni o`rganishga bo`lgan e`tibor alohida ahmiyat kasb etmoqda. Til o`rganuvchilar tomonidan turli yo`llar va usullardan foydalangan holda samarali bilim olishga qaratilgan sa`y harakatlar fikrimiz isbotidir. Internet resurslari, sharq va g`arb adabiyotini qiyoslab o`rganish, olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlarning amaliyotga tatbiq etilishi bu borada o`zining salmog`li hissasini qo`shmoqda. Ilmiy tadqiqot ishi sifatida tanlangan maqollarni o`rganish va tadqiq etish hozirgi kunda jadal rivojlanib borayotgan sohalardan biri hisoblanadi. Paremiologiya deb ataluvchi fan sohasida kichik bir parema bu - maqol sanaladi va u xalq og`zaki ijodining keng tarqalgan janrlaridan biridir. Maqollar asrlar osha ma`lum bir xalq va millat vakillari tomonidan yaratilgan hikmatlar durdonasi. Bunda kishilarning o`z boshidan o`tkazgan g`am-tashvishlari, ichki kechinmalari, bir-birlariga fikrni qisqa lo`nda tarzda qofiya va qolipga solingan holda yetkazish usullari o`z aksini topadi. Shu sababli deyarli ko`plab xalq maqollari bir-biriga shakl va ma`no jihatdan o`xshash tarzda bo`ladi. Xuddi shu holatda ingliz va o`zbek maqollari ham.

*Every bird likes its own nest**Bulbul chamanni sevar, odam-vatanni [5]*

Muloqot jarayonida nutqimizning jozibador va ohangdorligini oshirish uchun maqollardan foydalinish eng samarali yo`ldir. Tarixga nazar solsak, ajdodlarimiz merosi-buning yorqin isboti. Mahmud Koshg`ariyning □Devoni lug`ati turk□ asarida 400 ga

## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

yaqin , Gulxaniyning □Zarbulmasal□ ida 300 dan ortiq qolaversa[4], keyinchalik Alisher Navoiyning ko`plab asarlarida maqollar asosiy o`rinni egallagan. Faqat bunda bir jihat borki o`tgan asrlarda maqol atamasi ilk marotaba □sav□ shaklida, keyinchalik esa □masal□ tarzida qo`llanilgan. Buni Alisher Navoiy ijodida “masaldurkim–uyqu o ‘limdir” tarzida uchratishimiz ham fikrimizni tasdiqlaydi.[1] XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab esa Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, G`afur G`ulom va boshqa adiblarimiz asarlarida maqol atamasi keng qo`llanila boshlandi va hozirgi kungacha shu tarzda o`rganilib kelinmoqda.

O`zbek maqollari singari ingliz maqollari ham ma`no va mazmun jihatidan bir biriga o`xshash maqollar hisoblanadi. Biroq ingliz tilini grammatik, leksik xususiyatlarini yaxshi bilibgina qolmay, ingliz xalqining madaniy hayoti, kishilarning yashash tarzi va tarixini obdon o`rgangan tadqiqotchigina ingliz maqollarining o`zbek tilidagi mos ekvivalentlarini topib tahlil qilishi mumkin. Maqollar madaniyat va tarixning bir qismidir, ular bizni ota-bobolarimiz bilan birlashtiradi. Mashhur ingliz paremiologi Mieder maqollarni "barqaror madaniy iboralar" (fixed cultural expressions) deb ataydi[3] , chunki ular fikrlash shakllarini (patterns of thought) aks ettiradi, qadriyatlar va metaforalar (values and metaphors), dunyo haqidagi tasavvur, muayyan madaniyatga xos bo`lgan e'tiqodlarni mujassamlaydi. Buning sababi shundaki, maqollar:

- a) turli vaziyatlarda muayyan xatti-harakatlarni tavsiflaydi;
- b) turli xil ikki tomonlama vaziyatlarda tegishli harakatlarni aniqlaydi;
- c) oqibatlari haqida ogohlantiradi;
- d) xalq donoligini va ko`p asrlar davomida to'plangan inson tabiatini va umuman dunyo haqidagi bilimlarni tarjima qiladi;
- e) sabab va oqibatlarni asoslaydi; qarorlar va ularning oqibatlari o`rtasidagi bog'liqlik;
- f) madaniyatda shakllangan stereotiplarni aks ettiradi;[2]

O`zbek va ingliz maqollarining ko`plab adekvatik tarjima munosabati bilan shug`ullangan olimlar va tadqiqotchilarini kuzatamiz. Ulardan Karomatov va Karomatovalarning □Proverbs. Maqollar. Пословицы.” kitobida maqollarning inglizcha sinxron tarjima qilingan o`zbekcha, muqobil variantda o`zbekcha va rus tilida muqobil tarjima qilinganlarini ko`rishimiz mumkin. Ushbu kitobdan foydalangan holda ko`plab maqollar lug`atlari tuzib chiqilgan.

Maqollar lug`atlaridan foydalanishning asosiy muhim jihatida til o`rganuvchilar uchun ma`lum tilni muayyan doirada chuqur o`rganishga zamin yaratadi. Misol tariqasida ingliz tilini olib qarasak, o`zbek tilida ko`p ishlatalidigan □Hechdan ko`ra kech□ maqoli inglizchada □Better late than never”[6] kabi to`g`ridan to`g`ri tarjima qilinadi va bir xil ma`noda keladi. Bu esa til o`rganuvchida tarjimada unchalik qiyinchilik tug`dirmasligi mumkin, ammo “The best fish swim near the bottom□ degan maqol tom ma□noda «eng yaxshi baliq suvning pastida suzadi» deb tarjima qilinadi va bir qancha tushunmovchilik paydo bòlishiga sabab bòladi. Vaholanki, o`zbek tilida bunday maqol yo‘q. Bu qisman o`zbekcha «Yaxshi ot keyin chopdi» maqoliga mos keladi va insonlar ongida shunday

## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

gavdalanadi. Bir narsani yodda tutish joizki, har bir so‘zning semantik va grammatik ma’nosini tushunilsa ham har bir tilda so‘zma–so‘z qabul qilinmaydigan so‘z va iboralar mavjud. Bu holatda maqol yoki so‘zning g‘oyasi tushunarsiz va g‘alati tuyuladi. Bu til o`rganuvchida ba`zi bir tushunmovchiliklarni paydo qiladi. Shu sababli ham olimlar maqollarni turli yo`nalish, holat va sohalar bo`yicha, qolaversa alifbo tartibida lug`atlar tuzib o`rganishni tadbiq etishadi. Bu esa barcha uchun birdek qulaylik yaratadi.

Xulosa o`rnida aytishimiz mumkinki, aynan tilshunoslikning paremiologiya sohasi xalq og`zaki ijodining muhim bir bo`g`ini hisoblanadi. U maqol, matal yoki ibora bo`ladimi, barchasi birdek o`rganuvchiga muhim omil bo`lib xizmat qiladi. Shu maqsadda maqollarni o`rganish ya ularni til o`rganuvchilar uchun qulay va oson tarzda ma`nosini ochib berish ilmiy tadqiqot ishimizning asosi hisoblanadi. Zero “til bilgan, el-biladi” deb bejiz aytilmagan.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://www.researchgate.net>
2. Я. Б. Емельянова РОЛЬ И МЕСТО ПОСЛОВИЦ В ИНОЯЗЫЧНОЙ ПОДГОТОВКЕ ПЕРЕВОДЧИКОВ// Научно-педагогическое обозрение. Pedagogical Review.2024.
3. Mieder W. Paremiological minimum and cultural literacy // Mieder W. (Ed.) Wise Words. Essays on the Proverb. New York: Garland Publishing Inc., 1994.
4. To'rabetkov Umidjon. O'zbek va ingliz xalq og`zaki ijodi maqollarining tahlili// Международный научный журнал № 7 (100), часть 1 «Новости образования: исследование в XXI веке».,2023
5. O'zbek xalq maqollari (to'liq variantda) <https://forum.ziyouz.com/index.php>
6. Karamatova.K.M, Karamatov.H.S. Proverbs, Maqollar, Пословицы.-Toshkent;-Mehnat, 2015.